



SCIENCE BOX

METHODOLOGY OF FORMING SPEAKING COMPETENCES OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE PROCESS OF INDEPENDENT WORK (BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCES)

Haydarova Nargiza Odiljonovna

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Quyida berilgan maqolamizda nutq tushunchasi, nutq o'stirish metodikasi, uning ahamiyati, o'quvchilar nutqini rivojlantirish yo'llari, metodikasi, nutqni egallashning qator aspektlari, nutq o'stirish yo'nalishlari, o'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan talablar, ta'lif-tarbiya jarayonida nutq o'stirishga erishish orqali o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan hayotiy ko'nikmalar haqida so'z boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ishlar orqali til kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari keltirilgan.

Keywords: nutq, til, tilshunoslik, lingvistik kompetensiya, boshlang'ich ta'lif, metodika, nutq aspektlari, hayotiy ko'nikmalar, inson kamoloti, buyuk allomalar, ma'naviy meros, sharqona ta'lif va tarbiya, adabiy til normalari, tafakkur va notiqlik san'ati, ta'lif sifati.

Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarga innovatsion, ilg'or usullar va metodlarni qo'llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lif berish hamda o'quvchilarning ta'lidiagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta'lif tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib Yangi O'zbekistonimizning umumta'lif maktablarida ham ta'lif sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda va bu xalq ta'lifi sohasida tubdan o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ta'lif sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun metodik qo'llanmalar ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirilishi lozimligi alohida ta'kidlanganligi fikrimiz isbotidir. "Shu bilan birga bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli kitoblar yaratish zarurari, bu borada kelgusi o'quv yildidan boshlang'ich sinflarda davlat ta'lif standarti o'rniga ilg'or tajriba asosida, bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan "Milliy o'quv dasturi" joriy etiladi", - deya ta'kidlagani soha mutasaddilari oldiga ulkan vazifalar qo'yadi.

Respublikamiz umumta'lif maktablarida ona tilini o'qitishda o'quvchilarning nutqini o'stirish, lug'at ustida ishslash, ta'lif oluvchilarning ijodiy fikrlashlariga zamin yaratish va darslarni integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish borasidagi muammolar bir qator olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Sh.Yusupov, G.Axmedova, O.Oxunjonova, M.Haydarov, B.To'xliyevlarning tadqiqot ishlari taqsinga loyiqidir. Respublikamiz umumta'lif maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tushunchalarini shakllantirish masalalari Q.Abdullayeva, S.Matchonov, B.Makulova, T.G'afforova, G.A.Mamatova; yuqori sinf adabiyot darslarida o'quvchilarning adabiy-nazariy tushunchalarini shakllantirish masalalari A.Zunnunova, Q.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, U.M.Marasulova, R.X.Niyozmetova, Q.P.Husanboyevalarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan;



SCIENCE BOX

boshlang'ich sinf o'quvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari K.Qosimova, Sh.Yo'ldosheva, X.G'ulomova, A.Nisanbayevalar tomonidan tadqiq qilingan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, lingvistik kompetensiya o'quvchilarda tilning grammatikaga oid bilimlarini rivojlantirish va o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'quvchilar o'z fikrlarini to'g'ri, izchil, ravon va ma'noli, shu bilan birga tinglovchiga tushunarli tarzda bayon etishini shakllantirishdan iborat.

Tilning grammatikga oid bilimlari deyilganda esa biz tilshunoslik fanining bo'limlari: fonetika – tovushlar, leksikaloga - so'zlarning lug'aviy boyligi, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya - so'z shaklari, sintaksis - so'z tuzilishi va qurilishi, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalarni egallashi tushuniladi.

Mustaqil ishlar jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni o'quvchilarda fikr va mulohazalarini o'z ona tilida erkin, aniq, qisqa, ravon va tushunarli tarzda bayon eta olishiga, o'z nutqida adabiy til normalariga rioya qilgan holda so'zlash, imlo va uslubiy xatolarsiz fikr almashishga yordam beradi. Umumta'lim maktablarida mazkur kompetensiyalarga ega o'quvchini tarbiyalash "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanining zimmasidadir. Biroq amaldagi darsliklarimiz lingvistik bilimdon o'quvchini qay darajada tarbiyalamoqda?! Olima G.Yusupovaning "Bo'lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta'limdan foydalanish metodikasi" nomli tadqiqoti natijasida bo'lajak pedagoglarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda aralash ta'limdan foydalanishning tanishuv, ijodiy qism, baholash bosqichlari, o'zbek tilini bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari aniqlashtirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur tadqiqotda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zbek tilini bilish darajasini xalqaro mezonlar asosida baholash texnologiyalari bo'yicha asoslab berilganligi ishning yutug'i hisoblanadi. Bunda darsda berilgan mashq asosida bolaga qo'shimcha topshiriq beriladi:

1. Matndagi so'zlarni qatnashtirib boshqa matn tuzing,
2. Rasm asosida matn tuzing,
3. Berilgan sarlavhani o'zgartirib matn yarating,
4. Og'zaki holda bugungi rejalaringiz haqida matn tuzing, ...

Bunday topshiriqlar darslikdan alohida olib borilib bolani mustaqil ishslashga o'rgatadi. Nutqiy qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini yaratish maqsadini amalga oshirish uchun bir qator vazifalar ishlab chiqish lozim:

- ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish yuzasidan pedagogik va metodik imkoniyatlarni tahlil qilish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik komponentlarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish;
- ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdagi didaktik jihatlarini belgilash;
- "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligini tahlil qilish va darslik mavzularini mustahkamlashga xizmat qiluvchi qo'shimcha metodik adabiyotlar ishlab chiqish.





SCIENCE BOX

Mazkur vazifalarning amaldagi holati boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun xizmat qilsa, o‘quvchilar uchun esa mакtabda oлган bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Mazkur tadqiqot natijalari ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir etadi.

Adbiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “O‘zbekiston nashriyoti” Toshkent-2021.
2. Axmedova G.M. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilar nutqini yasama so‘zlar bilan boyitishning metodik asoslari: ped.fan.nom. ...diss. – Toshkent, 2007.
3. Haydarova M.E. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2009.
4. M.A.Kenjayeva. 5-6-sinf o‘quvchilarida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi: ped.fan.dok (PhD). ...diss. – Toshkent, 2021.
5. Ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar o‘quv moduli. – Toshkent. 2017. -110-b.
6. Oxunjonova O. Ta’lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o‘qitish metodikasi: ped.fan.nom. ...diss. – Toshkent, 2009. – 140-b.

